

**Qurilish jarayonlarida quruvchilar xavfsizligini ta'minlash uchun  
nima qilish kerak?**

*Shodiyev Sardor Rustam o'g'li*

*(“Buxoro muhandislik-texnologiya instituti”*

*“Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasi o'qituvchi-stajyori)*

Dunyodagi osmono'par binolar qanday barpo etiladi? Albatta, bu birinchi navbatda mohir me'morlarning tafakkur mahsuli bo'lsa, keyingi o'rinda usta quruvchilarning mashaqqatli mehnat natijasi hisoblanadi.

Dunyodagi barcha davlatlar ham shahar va boshqa aholi yashash manzilgohlariga o'ziga xos ulug'vorlik beruvchi bunday binolar qurilishiga alohida e'tibor qaratadi. Sababi, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishda davlat tashkiloti muassasalari va aholi uchun qulay turar joy binolarining mavjudligi muhim omildir.

O'zbekistonda ham qurilayotgan bino va inshootlar me'morchiligiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida ushbu yo'nalish so'nggi yillardagi eng tez o'sayotgan sohalardan biriga aylandi.

Bugun yurtimizdagi qaysi manzilda bo'lmang albatta qurilish va bunyodkorliklar ustidan chiqasiz.

Qurilish, me'morchilik haqida gap ketar ekan, unda quruvchilar mehnati va xavfsizligini alohida ta'kidlash lozim.

Respublikamizda barcha faoliyat turlari uchun mehnat xavfsizligi qoidalari belgilangan. Shu nuqtai nazardan baholaganda ham quruvchilarning hayot xavfsizligi qurilish tashkilotlarini jiddiy o'ylantirishi kerak.

Bugun biz sizga taklif etayotgan, qurilish ishlarida foydalanish uchun mo'ljallangan “OZLER” qolip va xavfsiz havoza tayanch tizimlari barcha turdagi qurilish ishlarida ishchilarning xavfsizligini ta'minlaydi.

Ushbu qolip va xavfsiz havoza tayanch tizimlari Turkiyada ishlab chiqariladi. Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridagi qurilish

ishlarida ham bu havozalar (lesa) va qoliplaridan (opolubka) keng foydalanilmoqda.

Xo'sh, "OZLER" qolip va xavfsiz havozalar tayanch tizimlari nimasi bilan dunyo quruvchilarini o'ziga jalb etgan?

**Quruvchilar xavfsizligining ta'minlanishi.**

"OZLER" qolip va xavfsiz havozalar tayanch tizimlari qurilish jarayonlaridagi xavfsizlik standartlariga to'liq javob beradi.

Jumladan, ushbu havozalarning chetki qismi quruvchilarning bel, tizza va to'piq a'zolari balandligida to'siqlar bilan o'ralgan, qurilishni boshlash jarayonida mustaxkam o'rnatiladi va unda har qanday balandlikda ham xavfsiz ishlash imkoniyati bor.

Bugungi kunda barcha turdagi zamonaviy binolar qurilishini ushbu qolip va xavfsiz havozalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekistonda shu kunga qadar eng yirik qurilish sifatida baholanayotgan "Tashkent City" majmuasi qurilishida ham ushbu qolip va havozalardan foydal anilmoqda.

***Qurilish ishlarini tez va sifatli yakunlash imkoniyati.***

Xalqimizda "ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur", degan naql bor. "OZLER" qolip va xavfsiz havozalar tayanch tizimlari bilan quruvchilarning mashaqqatli ish jarayoni osonlashadi.

Kompaniya tomonidan monolit pol quyma, turli hajmdagi ustun (kolonna) quyish va har qanday kattalikdagi devor yoki fundamentlar uchun panel qoliplari (opalubka) tayyor holatda qurilish maydoniga yetkazib beriladi. Tizimning asosiy ramkasida Yevropada ishlab chiqilgan yuqori kuchga ega profil ishlatiladi. Panel qolipning yuzasida yukori bosimga chidamli maxsus fanerlardan (plywood) foydalaniladi. Bu esa quruvchilarni qolip o'rnatishdagi ortiqcha qiyinchilik, vaqt yo'qotishlar va beton quyishdan keyingi sifatsiz natijadan saqlaydi.

**Ushbu qolip va havozalarni qanday qurilishlarda ishlatish mumkin?**

“OZLER” qolip va xavfsiz havoza tayanch tizimlarini katta ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar, korxonalar va tashkilot binolari, har hil shakldagi turar joy binolari, hovuz va basseynlar qurilishida ishlatish mumkin.

Qolip va xavfsiz havoza tayanch tizimlari sotiladi hamda ijaraga beriladi. Maxsus reja asosida qurilayotgan binolar uchun buyurtma qilingan qoliplar 15 kun muddatda qurilish joyiga yetkazib beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

[1]. Юсупов Р. Р., Салимов М. Ф. ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДА КОМПЛЕКС КОНСТРУКЦИЯЛИ БИНОНИНГ ФИШТ ТЕРМАНИНГ КУЧАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 110-116.

[2]. MM V. KO\_ P QAVATLI KARKASLI TURAR-JOY BINOLARINING ERTO\_ LALARINI AVTOMOBILLAR TURARGOXLARIGA MOSLASHTIRISH //ARCHITEKTURA VA QURILISH MUAMMOLARI (ILMIY TEXNIKLİK). – 2023. – Т. 1. – Yo‘q. 2. – 619-621-betlar.

[3]. SR S. KO ‘P QAVATLI BINOLARDA YERTO ‘LALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI //PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL). – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 600-602.

[4]. Вахтиёр о'ғ'ли J. S. BINO VA INSHOOTLARNING TO'SUVCHI KONSTRUKSIYALARIDA YENGIL BETONLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 3. – С. 106-108.

[5]. Ходжаева З. Ш., Бобокулов М. Б., Жумаев Ш. Самоний макбараси тарихий обидасининг конструктив ечимлари ва тахлили. – 2023..

[6]. Вахтиёр о'ғ'ли J. S. ME'MORIY YODGORLIKLARNI SAQLASH VA QAYTA TIKLASHDA 3D TEXNOLOGIYASI AHAMIYATI. – 2023.

[7]. Ochilova Nurzoda Tursunovna. Qurilish materiallari va buyumlari fanini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish. *Международный научный журнал № 19(100), часть 1 «Научный импульс» Март, 2024 133-141 б.*

[8]. Tursunovna O. N. Cho'yan va po'lat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish usullari. *PEDAGOGS*. 2024. T. 53. №. 1. С. 116-126.

[9]. Очиллова Н.Т. ПОСТРОЕНИЕ ТЕНЕЙ В ПЕРСПЕКТИВЕ INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY ECHNOLOGY UIF = 8.2 | SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 *IBAS* October. 2022 P. 117-123 (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223387>)

[10]. Юсупов Р. Р., Салимов М. Ф. ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДАГИ ТЕХНИК ҲОЛАТИНИ ТЕКШИРИШ ВА КОМПЛЕКС КОНСТРУКСИЯЛИ ЖАМОАТ БИНОСИНИНГ ФИШТ ТЕРМАНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШ НАТИЖАЛАР ТАҲЛИЛИ // *GOLDEN BRAIN*. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 117-122.